
QONUNCHILIKDAGI YANGILIKLAR



Qonunchilikdagi yangiliklar

“G’alla yetishtirish va sotishda erkin raqobatni ta’minlaydigan bozor tamoyillarini joriy etish to’g’risida” gi PQ-10-son Prezident Qaroriga binoan qishloq xo’jaligi sohasida davlat boshqaruvi organlari, hokimliklar va huquqni muhofaza qiluvchi organlariga quyidagilarga aralashish taqiqlanadi:

boshoqli don yetishtirishda agrotexnik tadbirlarni o’tkazish, moddiy-texnik resurslar bilan ta’minlashga;

ajratilgan imtiyozli kreditlardan foydalanish yo’nalishlariga;

bug’doyni sotish jarayonlariga, shartnomalar tuzishga, xo’jaliklarni don tayyorlash va qayta ishlash bilan shug’ullanuvchi ma’lum korxonalariga biriktirish, respublika hududlari o’rtasidagi ichki tashuvlarga aralashishga.

G’allachilik klasterlari faoliyatiga chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik va boshqa yo’nalishlarni qo’shish to’g’risida yozma yoki og’zaki tartibda ko’rsatma berish mumkin emas.

So’x tumani hokimligi Axborot xizmati

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-07-14 19:02:55